

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**MAMATQULOVA SURAYYOXON ABDUSAMATOVNA**

**ARPABODIYON, KASHNICH, ANJIR, CHILONJIYDA O‘SIMLIKLARI  
ASOSIDA SHIFOBAXSH TOVARLAR OLISH VA ULARNI SINFLASH**

**02.00.09-Tovarlar kimyosi  
14.00.41-Xalq tabobati**

**KIMYO FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2025**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtorefarati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**

**Contents of the abstract of the dissertation Doctor of Science (DSc)**

**Mamatqulova Surayyoxon Abdusamatovna**

Arpabodiyon, kashnich, anjir, chilonjiyda o‘simliklari asosida shifobaxsh tovarlar olish va ularni sinflash.....

**3**

**Маматкулова Сурайёхон Абдусаматовна**

Получение и классификация лекарственных товаров на основе растений фенхеля, кориандра, инжира и унаби.....

**29**

**Mamatkulova Surayyokhon Abdusamatovna**

Development and classification of therapeutic products based on dill, coriander, fig, jujube plants.....

**55**

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....

**59**

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**MAMATQULOVA SURAYYOXON ABDUSAMATOVNA**

**ARPABODIYON, KASHNICH, ANJIR, CHILONJIYDA O‘SIMLIKLARI  
ASOSIDA SHIFOBAXSH TOVARLAR OLISH VA ULARNI SINFLASH**

**02. 00.09-Tovarlar kimyosi  
14.00.41-Xalq tabobati**

**KIMYO FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2025**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.DSc/K186 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume). Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.adu.uz](http://www.adu.uz)) va «ZiyoNET» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Asqarov Ibrohim Rahmonovich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Isayev Yusupjon Tojimatovich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Karimov Abdurashid Musoxonovich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**To'rayev Zokirjon**  
texnika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Qo'qon davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ soat\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko'ch. 129. Tel.: (99877) 2238830, faks : (99874) 2238433).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko'ch. 129. Tel.: (99877) 2238830, faks : (99874) 2238433)e-mail: [abshax@mail.ru](mailto:abshax@mail.ru)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi. (2025 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**Sh.M.Kirgizov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi k.f.d., professor

**M.M.Mo'minjonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, k.f.d, professor

**M.M.Xojimatov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi k.f.d., dotsent

## **KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda dorivor o‘simliklarning kimyoviy tarkibini aniqlash, ularni qayta ishlab inson ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlarini olish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada, ozuqabop o‘simliklarning kimyoviy tarkibini aniqlash asosida sintetik dori vositalarining o‘rnini to‘ldiradigan, tarkibida inson organizmida uchraydigan turli kasalliklarni davolash va oldini olish xususiyatiga ega biologik faol birikmalar, makro- va mikroelementlar saqlagan tabiiy, zararsiz, ekologik toza oziq-ovqat qo‘shilmalarini ishlab chiqish hamda xalq tabobatida qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Jahonda dorivor o‘simliklar asosida qandli diabet kasalligini davolash va oldini olish xususiyatiga ega bo‘lgan tabiiy, ekologik toza, immunitetni oshiruvchi hamda ayrim sintetik preparatlarni o‘rnini bosuvchi biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, arpabodiyon, kashnich, anjir, chilonjiyda kabi mahalliy o‘simliklar qismlarining kimyoviy tarkibini zamonaviy usullar yordamida aniqlash, ular asosida endokrinologik kasalliklar, jumladan, qandli diabet kasalligini davolash va oldini olish xususiyatiga ega bo‘lgan tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalari yaratish, ularning kimyoviy tarkibi va biologik faolligini aniqlash, hamda ularga tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasi bo‘yicha yangi tovar kod raqamlarini ishlab chiqishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda qandli diabet kasalliklarning oldini olish va davolash xususiyatiga ega bo‘lgan dorivor o‘simliklar asosida tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalari ishlab chiqilib, kimyoviy tarkibi asosida sinflash borasida muayyan natijalarga erishilmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida<sup>1</sup> “oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari bozorlarida taklifni oshirish va mavsumiy taqchilliklarni bartaraf etish” bo‘yicha amalga oshirilishi muhim bo‘lgan vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, dorivor o‘simliklari asosida tarkibida qandli diabet kasalliklarini davolash va oldini olish xususiyatini namoyon qiluvchi birikmalar saqlagan, bezarar, tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalarini yaratish, shuningdek, ularning kimyoviy tarkibi, tuzilishi, xossalari aniqlash, hamda TIF TN bo‘yicha tovar kodlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-oktyabrdagi PQ-3968-son «O‘zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar dorivor o‘simliklar va xalq tabobatini rivojlantirish bo‘yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.

rivojlanishining VII. “Kimyo texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.** Dorivor o‘simliklardan biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalari olish va ularning tadqiqotiga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida hamda oliy ta‘lim muassasalarida, jumladan, Department of Family Medicine, University of Idaho, Division of Pharmacognosy and Natural Products Chemistry, The Ohio state university (AQSH), Department of Pharmacy, Dalhousie University, Halifax, Nova Scotia (Kanada), Department of Medical and Surgical Sciences-Endocrinology, University of Padua, (Italiya), Departments of Community Medicine, Gastroenterology and Radiology, University of Sheffield (Angliya), Medical Clinic University Hospital Kassel (Germaniya), Pharmacological Laboratory, University of Amsterdam (Niderlandiya), Laboratoire de Biochimie Générale et Nutritionnelle, CHU Purpan, Toulouse (Fransiya), School of Traditional Chinese Medicine, Southern Medical University, Department of Rheumatology (Xitoy), Department of Cardiovascular Surgery, Teikyo University (Yaponiya), Department of Veterinary Medicine, King Saud University (Saudiya Arabistoni) Velayat Clinical Research Development Unit, Department of Internal Medicine (Eron), Rossiya FA Ufa ilmiy markazi, Sevastopol universiteti Politexnika instituti (Rossiya), Dorivor vositalar va tibbiyot mahsulotlari davlat ilmiy markazi (Ukraina), O‘zbekiston milliy universiteti, Toshkent farmatsevtika instituti, O‘zbekiston Respublikasi FA Bioorganik kimyo instituti, O‘simlik moddalari kimyosi institutida olib borilmoqda.

Dorivor o‘simliklarning kimyoviy tarkibini aniqlash va qayta ishlash tadqiqotlari natijasida bir qator natijalar olingan: jumladan, shifobaxsh o‘simliklar asosida dorivor birikmalar olingan (Technische Universitat Chemnitz, Faculty of Natural Sciences, Institute of Chemistry Germaniya); dorivor o‘simlik navlari tarkibidagi makro- va mikroelementlarning miqdorini aniqlash usullari ishlab chiqilgan (Dipartimento di Chimica Industriale “Toso Montanari”, Università di Bologna, Italiya); shifobaxsh o‘simliklar asosida mikroelementlarga boy tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalari olingan (Bialystok University of Technology, Faculty of Civil Engineering and Environmental Sciences, Department of Chemistry, Polsha); tarkibida tabiiy biologik faol birikmalar saqlagan o‘simlik ekstraktlari bilan oziq-ovqat mahsulotlarini boyitish texnologiyasi yaratilgan (Department of Inorganic Chemistry, Faculty of Pharmacy, University of Medicine and Pharmacy, Ruminya); Antivirus ta‘sirga ega birikmalarni o‘simliklardan ajratib olish usullari ishlab chiqilgan (State Key Laboratory of Coordination Chemistry, Nanjing University (Xitoy)); ayrim mahalliy o‘simlik navlari tarkibidagi birikmalarning tarkibi va tuzilishi aniqlangan (O‘simlik moddalar kimyosi instituti, O‘zbekiston).

Dunyoda shifobaxsh o‘simlik navlari asosida inson organizmidagi endokrinologik, asab tizimi bilan bog‘liq kasalliklarni davolash va oldini olish xususiyatiga ega tabiiy preparatlar ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga joriy

---

<sup>2</sup> Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: <http://www.firp.state.fl.us>, <http://www.dobersek.comm>, <http://www.ichp.pl>, <http://www.csj.jp>, <http://en.ustc.edu.cn>, <http://chem.iitm.ac/in>, <http://dmpe.aut.ac.ir>, <http://www.niuif.ru>, <http://www.ionx.uz> va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

etish bo'yicha qator ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda, jumladan, shifobaxsh o'simliklar tarkibidan biologik faol moddalarni ajratib olish; olingan birikmalarning tarkibi va tuzilishini fizik-kimyoviy metodlar yordamida aniqlash, ularning biologik faolligi va fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash; o'simliklar tarkibidagi turli biologik faollikka ega bo'lgan flavonoidlarni aniqlash va ajratib olish; oziq-ovqat mahsulotlarini tarkibida makroelementlar saqlagan o'simlik ekstraktlari bilan boyitish; shifobaxsh o'simlik konsentratlari va ekstraktlari yordamida ayrim endokrinologik kasalliklarni davolash va oldini olish; shifobaxsh o'simliklardan ajratib olingan tabiiy birikmalar asosida oziq-ovqat qo'shilmalari olish.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Arpabodiyon, kashnich, anjir va chilonjiyda o'simliklari bo'yicha ko'plab olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Xorijda dorivor o'simliklarni tahlil qilish, oziq-ovqat qo'shilmalari yaratish bo'yicha V. I. Litvinenko (Ukraina), A. I. Slivkin, Kurkin V. A. (Rossiya), F. N. Yalgin (Turkiya), A. Willis, A. Biatico (Italiya) K. I. Alipiyeva va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borgan.

O'zbekistonda ushbu yo'nalish bo'yicha E. Botirov, X. M. Shoxidoyatov, M.S. Maksudov, Z. Saatov, V.N. Sirov, Z.A. Xushbaktova, N.Sh. Ramazanov, N.K. Xidirova, I.R. Asqarov, N.M. Mamatkulova, N.I. Mukarramov, M.J. Raxmatova, O.Sh.Abdulloyev va boshqalar tomonidan ko'plab samarali ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va hozirgi kunda ham muvaffaqiyatli davom ettirilmoqda.

Hozirgi kunda arpabodiyon, kashnich, anjir va chilonjiyda o'simliklarining fitokimyoviy xususiyatlari atroficha o'rganilgan bo'lsada ular asosida oziq-ovqat qo'shilmalari ishlab chiqilmagan. Qandli diabet, oshqozon-ichak yallig'lanishi, neyrodegenerativ, diyabetik kasalliklarini va boshqa kasalliklarini davolash va oldini olishda qo'llanilmagan, bu borada tadqiqotlar olib borilmagan. Xalq tabobati usulida davolash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazilmagan. O'simliklar asosida ishlab chiqarilgan tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalari kimyoviy tarkibi asosida TIF TN bo'yicha yangi xalqaro tovar kodlari raqamlari ishlab chiqilmagan.

Ushbu dissertatsiya ishi arpabodiyon, kashnich, anjir va chilonjiyda o'simliklarining kimyoviy tarkibini aniqlash, ular tarkibidagi biologik faol moddalar ajratib olish asosida, diabet kasalligini davolash va oldini olish xususiyatiga ega bo'lgan tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalarini yaratish va amaliyotga joriy qilish kabi muammolarni hal etishga yo'naltirilgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Xalq xo'jaligi va xalq tabobatida foydalaniladigan tovarlar olish va ularni sinflash" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** arpabodiyon, kashnich, anjir va jiyda o'simliklarining turli kompozitsiyalari asosida xalq tabobati uchun oziq-ovqat qo'shilmalari ishlab chiqish, ularning kimyoviy tarkibi va shifobaxsh xususiyatlarini aniqlash hamda TIF TN bo'yicha sinflashdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

Farg‘ona vodiysida yetishtirilgan arpabodiyon, kashnich, anjir va chilonjiyda o‘simliklari tarkibidagi vitaminlar, fenolli birikmalar, flavonoidlar miqdorini aniqlash;

Farg‘ona vodiysida yetishtirilgan arpabodiyon, kashnich, anjir va chilonjiyda o‘simliklari tarkibidagi makro- va mikroelementlar miqdorini aniqlash;

arpabodiyon, kashnich, anjir va chilonjiyda o‘simliklari, kashnich o‘simligi va arpabodiyon urug‘i va ularning har xil tarkibli kompozitsiyalarining *in vitro* sharoitida antioksidant faolligini baholash hamda shu asosida xalq tabobatida qo‘llaniladigan shifobaxsh oziq-ovqat qo‘shilmalari ishlab chiqish;

Farg‘ona vodiysida yetishtirilgan arpabodiyon, kashnich, anjir va chilonjiyda o‘simliklari asosida olingan yangi oziq-ovqat qo‘shilmalarining *in vitro* sharoitida andiradikal faolligini aniqlash;

ishlab chiqilgan yangi oziq-ovqat qo‘shilmalarining kimyoviy tarkibini, suvda eruvchan vitaminlar, polifenollar, makro- va mikroelementlar miqdorini aniqlash;

yangi oziq-ovqat qo‘shilmalarini ishlab chiqarishga joriy etish uchun zarur me‘yoriy hujjatlar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

arpabodiyon, kashnich, anjir va chilonjiyda o‘simliklari asosida yaratilgan oziq-ovqat qo‘shilmalari uchun TIF TN bo‘yicha xalqaro tovar kodlari ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** Farg‘ona viloyatida o‘suvchi arpabodiyon, kashnich, anjir va chilonjiyda o‘simliklari hamda ular tarkibidagi biologik faol moddalar olingan.

**Tadqiqotning predmetini** Arpabodiyon (*Arpabodiyon Vulgare*), kashnich (*Coriandrum*), anjir (*Ficus carica* L) va chilonjiyda (*Ziziphus Mill*) o‘simliklari asosidagi “Assurjum”, “Askarun” va “Askarufen” oziq-ovqat qo‘shilmalari, ushbu oziq-ovqat qo‘shilmalari tarkibidagi biologik faol moddalar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishini bajarishda bir qator zamonaviy kimyoviy va biologik tahlil usullari qo‘llanilgan. Dissertatsiya ishida kimyoviy tahlil, yuqori samarali suyuqlik xromatografiya (YuSSX), induktiv bog‘langan plazmali optik emission spektrometriya (IBP OES), ultrabinafsha va ko‘rish sohasi spektrofotometriyasi (UB KSS), o‘simlik xom-ashyolari va olingan yangi oziq-ovqat qo‘shilmalarining biologik faolliklarini aniqlash hamda tovarlarni xalqaro Uyg‘unlashgan tizim asosida sinflash usullaridan foydalanilgan.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

Farg‘ona vodiysida yetishtirilgan chilonjiyda va anjir mevalari tarkibida gidrofil vitaminlarni YuSSX usulida aniqlash natijasida chilonjiyda mevasi B<sub>6</sub>, B<sub>3</sub>, B<sub>2</sub> va C, oq anjir mevasi B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, B<sub>6</sub>, B<sub>9</sub> va C, qora anjir mevasi B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, B<sub>6</sub>, B<sub>9</sub> va C vitaminlari ko‘p miqdorda to‘planishi isbotlangan;

Ilk bor “Assurjum”, “Askarun” va “Askarufen” oziq-ovqat qo‘shilmalari tarkibidagi organizm uchun zarur bo‘lgan makro- va mikroelementlar miqdori induktiv bog‘langan plazmali optik emission spektrofotometr yordamida aniqlangan;

“Assurjum”, “Askarun” va “Askarufen” oziq-ovqat qo‘shimlari tarkibidagi suvda eruvchan va fenolli birikmalar miqdori yuqori samarali suyuqlik xromatogrammasi usuli yordami aniqlangan;

chilonjiyda va qora anjirning har xil og‘irlik nisbatlaridagi aralashmalari orasida, 1:1 nisbatdagi aralashma suvli ekstrakti *in vitro* sharoitida avtooksidlanish reaksiyasini kuchli ingibirlash qobiliyatini namoyon qilib, eng yuqori antioksidant faollik ko‘rsatishi aniqlangan;

“Assurjum”, “Askarufen” va “Askarun” oziq-ovqat qo‘shimlarining *in vitro* sharoitida lipidlarni peroksidli oksidlanish mahsulotlariga hamda antioksidant fermentlari faolligiga ta‘sirini o‘rganish yordamida ularning antiradikal faolligi yuqori ekanligini isbotlangan;

Farg‘ona viloyati hududida o‘sovchi arpabodiyon, kashnich, anjir va chilonjiyda o‘simliklari asosida biologik faol oziq-ovqat qo‘shimlari yaratilgan va tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasi (TIF TN) bo‘yicha tovar kodi ishlab chiqilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

Arpabodiyon, kashnich, anjir va chilonjiyda o‘simliklar tarkibidan qandli diabetga qarshi faollikka ega bo‘lgan birikmalarni aniqlash asosida “Assurjum”, “Askarun” va “Askarufen” oziq-ovqat qo‘shimlari ishlab chiqilgan;

yaratilgan yangi oziq-ovqat qo‘shimlarini ishlab chiqarish uchun texnologik yo‘riqnomalar ishlab chiqilgan;

yangi ishlab chiqilgan “Assurjum”, “Askarun” va “Askarufen” qandli diabet, oshqozon-ichak yallig‘lanishiga qarshi ta‘sirga ega bo‘lgan oziq-ovqat qo‘shimlariga TIF TN bo‘yicha yangi xalqaro tovar kodlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** oziq-ovqat qo‘shimlarining yuqori samarali suyuqlik xromatografiya, induktiv bog‘langan plazmali optik emission spektrometriya, ultrabinafsha va ko‘rish sohasi spektrofotometriya usullarida kimyoviy tarkibi aniqlanganligi va biologik faolliklari baholanganligi, olingan tadqiqot natijalari matematik-statistik tahlil qilinganligi, olingan natijalarning ilmiy nashrlarda e‘lon qilinganligi, amaliy natijalarining vakolatli davlat organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati arpabodiyon, kashnich, anjir va chilonjiyda o‘simliklarining tarkibida biologik faol moddalar aniqlanganligi, ularning tarkibi va tuzilishi, antioksidant xossasi, biologik faolligi, ayrim fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dorivor o‘simliklar asosida qandli diabet kasalliklarini davolash va oldini olish xususiyatiga ega bo‘lgan “Assurjum”, “Askarun” va “Askarufen” oziq-ovqat qo‘shimlari ishlab chiqilganligi, ularni xalq tabobati amaliyotiga tavsiya etilganligi, hamda kimyoviy tarkibi bo‘yicha tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasi (TIF TN) bo‘yicha xalqaro kod raqamlari ishlab chiqilib, davlat bojxona amaliyotida foydalanishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Arpabodiyon, kashnich, anjir va chilonjiyda o‘simliklari asosida xalq tabobati uchun tovarlar olish va ularni sinflash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

arpabodiyon urug‘i va kashnich bargi asosida “Assurjum” nomli yangi oziq-ovqat qo‘shilmasini ishlab chiqarish texnologik yo‘riqnomasi (TY 477967747-01:2024) ishlab chiqilgan va “UzTest” O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi tomonidan tasdiqlangan (“UzTest” O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi laboratoriyasining 03.05.2024 yildagi №002-120/3-son ma‘lumotnomasi). Natijada chilonjiyda mevasi, kashnich o‘simligining yer ustki qismi, arpabodiyon urug‘i kompozitsiyasi asosida shifobaxsh oziq-ovqat qo‘shilmalarini ishlab chiqarish imkonini bergan;

chilonjiyda va anjir mevalari kompozitsiyasi asosida “Askarun” nomli yangi oziq-ovqat qo‘shilmasini ishlab chiqarish texnologik yo‘riqnomasi (TY 303271760-04:2024) ishlab chiqilgan va “UzTest” O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi tomonidan tasdiqlangan (“UzTest” O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi laboratoriyasining 03.05.2024 yildagi №002-120/3-son ma‘lumotnomasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezident Adminstratsiyasi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik nazorat Bosh boshqarmasining 06.08.2024 yildagi №016831-son ma‘lumotnomasi). Natijada, chilonjiyda va anjir mevalari asosida shifobaxsh oziq-ovqat qo‘shilmalarini ishlab chiqarish imkonini bergan;

chilonjiyda mevasi, kashnich o‘simligining yer ustki qismi, arpabodiyon urug‘i kompozitsiyasi asosida “Askarufen” nomli yangi oziq-ovqat qo‘shilmasini ishlab chiqarish texnologik yo‘riqnomasi (TY 477967747-01:2024) ishlab chiqilgan va “UzTest” O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi tomonidan tasdiqlangan (“UzTest” O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi laboratoriyasining 03.05.2024 yildagi №002-120/3-son ma‘lumotnomasi). Natijada, chilonjiyda mevasi, kashnich o‘simligining yer ustki qismi, arpabodiyon urug‘i kompozitsiyasi asosida shifobaxsh oziq-ovqat qo‘shilmalarini ishlab chiqarish imkonini bergan.

“Assurjum” nomli tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalari tovar sifatida sinflanib, ularga tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasi bo‘yicha “arpabodiyon va koriandr o‘simliklari asosida ishlab chiqilgan, tarkibida digidrokversetin, lyutionin, rutin, senerozid, kversetin va salidroqid saqlagan, tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalari” uchun – 1212 99 950 1 kod raqami ishlab chiqilgan va O‘zbekiston Respublikasi Bojxona Qo‘mitasi tomonidan amaliyotga joriy qilingan. (O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining 2024 yil 4 dekabrda 17/05-24-2132-sonli ma‘lumotnomasi) Natijada chilonjiyda, anjir va ayrim dorivor o‘simliklar asosida tayyorlangan oziq-ovqat qo‘shilmalarini kimyoviy tarkibi asosida sinflash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi:** Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta, jumladan, 8 ta xalqaro va 3 respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi:** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy maqola chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining fan doktori (DSc) dissertatsiyalari ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan Respublika ilmiy nashrlarida 10 ta maqola va xorijiy jurnallarda 3 ta maqola nashr etilgan. Tibbiy kimyo va organik sintez darsligi o‘quv jarayonida qo‘llanilmoqda.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 162 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruratiga asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari tavsiflangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati bayon qilingan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Arpabodiyon, kashnich, anjir va chilonjiyda o‘simliklarining kimyoviy tarkibi va shifobaxsh xususiyatlari (adabiyotlar sharhi)”** deb nomlangan birinchi bobida chilonjiyda (*Unabi*), arpabodiyon (*Pimpinella anisum L.*), anjir (*Ficus carica*), oddiy kashnich (*Coriandrum sativum*) o‘simliklarining kimyoviy tarkibi, biologik faol moddalari, biologik faol birikmalarning tuzilishi va xossalari hamda o‘simliklarning makro va mikroelement tarkibi, o‘simliklarning xalq tabobatida ishlatilishi, tovarlar kimyosi va xalq tabobati fanlarining rivojlanishi va istiqbollari, shuningdek, qandli diabetda foydalaniladigan sintetik dorilarning kimyoviy tarkibi va xususiyatlari yoritilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Arpabodiyon, kashnich, anjir va chilonjiyda o‘simliklari va oziq-ovqat qo‘shimchalarining kimyoviy tarkibini o‘rganish natijalarining tahlili (natijalar muhokamasi)”** deb nomlanib bu bobning birinchi qismida chilonjiyda o‘simligi tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlarni tahlili o‘rganilganligi natijalari muhokamasi keltirilgan. Tayyorlangan standart eritmalar xromatogrammasidagi har bir vitamininga tegishli cho‘qqi yuzasining uning konsentratsiyaga bog‘liqlik darajalangan grafiklari tuzildi, matematik qayta ishlandi va har bir vitamin uchun bog‘liqlikning aniqlik parametri  $R^2$  hisoblandi (1-jadval).

1-jadval.

Vitaminlar standart eritmaları uchun tegishli to‘lqin uzunlikda qayd etilgan xromatografik cho‘qqilarning ushlanish vaqtlari va bu cho‘qqilar yuzasining konsentratsiyaga bog‘liqlik grafiklarining  $R^2$  qiymatlari.

№	Vitamin	Ushlanish vaqti, min	To‘lqin uzunlik, nm	$R^2$
1.	B1	2,918	265	0,9997380
2.	B <sub>2</sub>	19,029	291	0,9894794
3.	B <sub>3</sub>	5,075	265	0,9999956
4.	B <sub>6</sub>	6,741	265	0,9999922
5.	B <sub>9</sub>	16,888	291	0,9998072
6.	B12	17,657	265	0,9999780
7.	C	4,253	265	0,9983604
8.	PP	7,840	265	0,9999955

2-jadvalda chilonjiyda mevasi danagidan ajratilgan, quritilgan, o'lchami 2,0-3,5 mm darajasida maydalangan kukunidagi suvda eruvchan vitaminlarning ekstraksiya jarayonining to'liqligini kuzatish maqsadida har xil harorat va har xil vaqt davomida olingan ekstraktlardagi xromatografik aniqlangan ayrim vitaminlarning miqdorlari keltirilgan.

2-jadval

Chilonjiyda mevasidan har xil haroratda va vaqtda olingan ekstraktlaridagi ayrim vitaminlarning miqdorlari.

№	Harorat, °C	Vaqt, min	Vitaminlar miqdori, mg/100 g							
			B <sub>1</sub>	B <sub>2</sub>	B <sub>3</sub>	B <sub>6</sub>	B <sub>9</sub>	C	PP	
1.	20	20	,92	16,68	34,71	54,19	1,11	7,01	1,91	
2.	40	20	9,34	15,90	35,91	55,20	1,80	7,39	2,18	
3.	60	10	6,91	18,92	34,80	48,34	1,83	9,57	1,27	
4.		20	8,66	18,69	35,23	59,57	1,71	18,39	3,22	
5.			9,66	19,05	37,13	62,63	1,79	19,93	4,94	
6.			8,51	19,82	35,92	59,70	2,26	18,33	4,59	
7.			9,62	19,09	37,07	62,94	1,68	19,41	5,01	
8.			9,78	20,90	36,08	57,19	2,22	19,17	4,47	
9.			30	8,94	21,21	30,06	62,45	2,48	16,31	3,31
10.		40	8,49	21,06	34,80	60,06	2,42	14,66	3,28	
11.		80	20	9,81	21,75	38,44	62,43	2,51	14,34	3,22

Olingan natijalardan ko'rinadiki, chilonjiyda mevasida B<sub>6</sub>, B<sub>3</sub>, B<sub>2</sub> va C vitaminlari eng ko'p miqdorda bo'lib, B<sub>1</sub> vitamini mavjud emasligi ko'rsatildi.

Chilonjiyda o'simligidagi vitaminlar, xususan, vitamin C va B guruhiga mansub vitaminlar, insulinning sezgirligini oshirishga yordam beradi. Bu organizmning glyukoza metabolizmini yaxshilashda muhimdir, chunki insulinning ko'proq faoliyat ko'rsatishi qon shakarini pasaytirishga yordam beradi. Shunday qilib, qandli diabetga chalingan bemorlar uchun qon shakarini nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega.

Keyingi ishlarimizda quritilgan oq anjir va qora anjir mevasi ekstraktlari tarkibidagi vitaminlar o'rganildi. Oq anjir mevasi ekstrakti tarkibida suvda eruvchan vitaminlardan B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, B<sub>6</sub>, B<sub>9</sub>, va C vitaminlari aniqlandi. 100 gramm namunadagi vitaminlarning miqdori quyidagi qatorda ortib boradi: B<sub>2</sub> < B<sub>1</sub> < B<sub>9</sub> < B<sub>6</sub> < C < B<sub>1</sub>. Eng ko'p miqdorda B<sub>1</sub> vitamini (19,378 mg/100g) va eng kam miqdorda B<sub>2</sub> (1,910 mg/100g) mavjudligi aniqlangan.

Qora anjir mevasi ekstrakti tarkibida quyidagi suvda eruvchan vitaminlar aniqlangan: B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, B<sub>6</sub>, B<sub>9</sub> va C vitaminlari. 100 gramm namunadagi vitaminlarning miqdori ma'lum tartibda ortadi: B<sub>2</sub> < B<sub>6</sub> < B<sub>9</sub> < B<sub>1</sub> < C Bu natijalarga ko'ra, eng ko'p miqdorda B<sub>12</sub> vitamini (23,643 mg/100 g) mavjud bo'lib, eng kam miqdorda esa B<sub>2</sub> vitamini (0,263 mg/100 g) borligi aniqlangan.

Oq anjir mevasi B<sub>1</sub> (tiamin) va C vitaminlariga boy bo'lib, bu esa uning energiya manbai va immun tizimini mustahkamlashdagi ahamiyatini oshiradi. B<sub>1</sub> vitamini nerv tizimining sog'lom ishlashi uchun muhim rol o'ynaydi, C vitamini esa

antioksidant sifatida organizmni himoya qilishda yordam beradi. Qora anjir mevasi B<sub>12</sub> va C vitaminlariga boydir. B<sub>12</sub> vitamini asab tizimining faoliyatini qo'llab-quvvatlashda va qon ishlab chiqarishda muhimdir.

Ikkala anjir mevasida ham C vitaminining miqdori yuqori bo'lib ularning sog'liq uchun foydali xususiyatlarini yanada oshiradi. Natijalardan shuni anglash mumkinki, qora anjir mevasi suvda eruvchan vitaminlar miqdori bo'yicha oq anjir mevasidan ustun. Oq anjir mevasi B<sub>1</sub> va C vitaminlariga boy bo'lsa, qora anjir mevasi B<sub>12</sub> va C vitaminlariga boydir.

Mazkur bobning 3-qismida kashnich o'simligi ekstrakti tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlarining tahlili keltirilgan bo'lib, kashnich ekstrakti tarkibida yuqori darajada vitamin C, B<sub>1</sub> va K mavjud. Ushbu vitaminlar metabolizmni yaxshilashda va qandli diabet kabi kasalliklarni davolashda muhim rol o'ynaydi. Vitamin C immunitetni mustahkamlashda va antioksidant sifatida xizmat qiladi, B<sub>1</sub> vitamini energiya ishlab chiqarishga yordam beradi, B<sub>6</sub> vitamini esa oqsil almashinuvini qo'llab-quvvatlaydi. Vitamin K esa qon ivish jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Farg'ona vodiysida yetishtirilgan anjir va chilonjiyda mevalaridagi fenolli birikmalar miqdori YuSSX usuli yordamida aniqlandi. Fenolli birikmalar miqdorini aniqlashda, vitaminlarni aniqlashda qo'llanilgan usullarga o'xshab, tayyorlangan standart fenolli birikmalar aralashmasining aniq konsentratsiyali eritmalari xromatogrammalaridagi har bir polifenol birikmaga tegishli cho'qqi yuzasining konsentratsiyaga bog'liqlik darajalangan grafiklari tuzildi. Natijalarga ko'ra, mevalar ekstraktidagi polifenollar konsentratsiyasining o'rtacha qiymatidan foydalanib, bu moddalarning 100 g quruq mevaga to'g'ri keladigan milligrammlar miqdori 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval.

Anjir va chilonjiyda mevalaridagi fenolli birikmalar miqdori, mg/100 g

<b>Polifenol</b>	<b>Gall kislota</b>	<b>Rutin</b>	<b>Salitsil kislota</b>	<b>Kversetin</b>	<b>Apigenin</b>
<b>Qora anjir</b>	173,25	28,93	1,75	2,28	1,53
<b>Chilonjiyda</b>	5,46	8,83	1,27	0,20	0,10

Jadvalda keltirilgan natijalardan Farg'ona vodiysida yetishtirilgan qora anjirda va Chilonjiyda gall kislota va rutinga juda boy ekanligi, salitsil kislota, kversetin va apigeninlarning miqdorlari esa sezilarli darajada past ekanligi ko'rinadi.

Tadqiqotimizda anjir va chilonjiyda mevalarining suvli ekstraktlarining antioksidant faollik darajalari aniqlangan. 4-jadvalda keltirilgan AOF% ko'rsatgichlari orqali, antioksidant faollikning vaqtga bog'liq ravishda qanday o'zgarishini kuzatishga imkon yaratildi.

Anjir, chilonjiyda mevalarini va ularning har xil nisbatdagi aralashmalarini suvli ekstraktlarining har xil vaqtdagi AOF% ko'rsatgichlari.

Namuna (aralasma nisbati)	AOF, %				
	1 min	3 min	5 min	10 min	O'rtacha
Oq anjir	9,92	9,33	10,32	1,64	7,81
Qora anjir	19,85	18,13	18,55	9,65	16,54
Chilonjiyda	3,64	6,43	6,36	7,21	5,91
Chilonjiyda+sariq anjir (1:1)	-29,01	-21,07	-13,55	-5,54	-17,29
Chilonjiyda+sariq anjir (1:3)	-23,66	-13,87	-11,29	-3,90	-13,18
Chilonjiyda+sariq anjir (3:1)	-12,98	-7,47	-3,06	0,72	-5,70
Chilonjiyda+qora anjir (1:3)	7,63	7,73	6,61	0,31	5,57
Chilonjiyda+qora anjir (3:1)	15,27	12,00	9,52	2,36	9,79
Chilonjiyda+qora anjir (1:1)	<b>27,48</b>	<b>22,40</b>	<b>21,94</b>	<b>12,42</b>	<b>21,06</b>

Jadvalda keltirilgan qiymatlar O'zbekistonda o'sadigan qora anjirning antioksidant faolligi sariq anjirdan yuqori ekanligini ko'rsatadi. Chilonjiyda mevasining AOF% ko'rsatgichlari esa oq anjirga nisbatan yanada yuqori. Mevalar aralashmalarining AOF% ko'rsatgichlari taqqoslanganda, Chilonjiyda bilan sariq anjir aralashmasining antioksidant faolligi Chilonjiyda bilan qora anjir aralashmasiga qaraganda past darajada ekanligi aniqlangan. Olingan natijalar asosida, chilonjiyda va qora anjirning 1:1 nisbatdagi aralashmasi yangi shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmasi sifatida tavsiya etiladi. Ushbu oziq-ovqat qo'shimchasini shartli ravishda "Askarun" deb nomladik. "Askarun" o'z ichiga olgan yuqori antioksidant moddalar bilan inson salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda.

Arpabodiyon (*Pimpinella anisum L.*) va kashnich (*Coriandrum sativum L.*) o'simliklari dorivor o'simliklar orasida alohida o'rin tutadi. Ushbu o'simliklar tarkibidagi flavonoidlar, fenollik birikmalar va efir moylari ularning biologik faol moddalarga boyligini ko'rsatadi. Ayniqsa, kashnich va arpabodiyonning aralashmalari antioksidant xususiyatlari bilan ajralib turadi. O'simliklardan olinadigan preparatlar organizmda erkin radikallarni neytrallashtirib, oksidativ stressni kamaytirishga xizmat qiladi. Ushbu xususiyatlar tadqiqotlarda keng o'rganilmoqda, va ularning samarasi *in vitro* sharoitida eruvchanlik va antioksidant faollik bilan aniqlanadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, kashnich bargi va arpabodiyon urug'i o'rtasidagi aralashmalarda (3:1 nisbatda) maksimal antioksidant faollik kuzatilgan. Bunday nisbatdagi aralashmalar erkin radikallarni samarali neytrallashtiradi va organizmning oksidativ stressdan himoyalinishiga yordam beradi. Ushbu natijalar dorivor va sog'lomlashtiruvchi preparatlarni ishlab chiqishda keng qo'llanilishi

mumkin. Olingan natijalar asosida, kashnich bargi va arpabodiyon urug‘i o‘rtasidagi 3:1 nisbatdagi aralashma maksimal antioksidant faollik ko‘rsatganligi sababli, yangi shifobaxsh oziq-ovqat qo‘shilmasi sifatida tavsiya etiladi. Ushbu oziq-ovqat qo‘shilmasini shartli ravishda “Assurjum” deb nomladik.

“Assurjum” o‘z tarkibida yuqori antioksidant moddalar saqlaganligi bilan inson salomatligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi kutilmoqda, ayniqsa qandli diabet bilan og‘rigan bemorlar uchun. Ushbu oziq-ovqat qo‘shilmasi organizmning oksidativ stressdan himoya qilishga yordam berishi va metabolik jarayonlarni yaxshilashi, natijada qondagi glyukoza darajasini nazorat qilishga hissa qo‘shishi mumkin. Shuning uchun, “Assurjum” oziq-ovqat qo‘shilmasi ozuqaviy xususiyatlari va sog‘liq uchun foydalari bilan ahamiyatga ega, va bu yangi preparatning kengroq tadqiqotlarini o‘tkazish zarurati mavjud.

*Coriandrum sativum* (kashnich) yer ustki qismi, *Vulgare* (arpabodiyon) urug‘lari va *Zizifus jujuba* Mill. (chilonjiyda) mevasi salqin joyda quritilib, maydalangan holda olingan. O‘simliklarning xom-ashyolari turli massa nisbatlari bilan bir nechta namunalarda tayyorlandi. Namunalarning antioksidant faolligi vitamin C bilan solishtirilgan holda aniqlangan.

5-jadval.

Har xil massa nisbatlaridagi kashnich (*Coriandrum sativum*) yer ustki qismi, arpabodiyon (*Anisum*) urug‘i va chilonjiyda (*Zizifus jujuba* Mill.) mevasi asosida tayyorlangan namunalar

Namuna nomi	<i>Coriandrum sativum</i>	<i>Vulgare</i>	<i>Zizifus jujuba</i> Mill.
1-namuna	1	1	1
2-namuna	2	1	1
3-namuna	1	2	1
4-namuna	1	1	2

Tadqiqot davomida kashnich (*Coriandrum sativum*) yer ustki qismi, arpabodiyon (*Vulgare*) urug‘i va chilonjiyda (*Zizifus jujuba* Mill.) mevasi o‘zaro turli nisbatlarda aralastirilib, 4 xil namuna tayyorlandi. Ushbu namunalardagi massa nisbatlari o‘simliklarning shifobaxsh xususiyatlarini maksimal darajada ifodalash va ularning o‘zaro sinergiya (bir-birini kuchaytirish) imkoniyatlarini baholash maqsadida ishlab chiqilgan. Har bir namuna salqin joyda quritilgan va maydalanib, keyinchalik antioksidant faollikni o‘lchash uchun tayyorlangan.

1-namuna teng miqdorda kashnich, arpabodiyon va chilonjiyda o‘z ichiga olgan bo‘lsa, 2-namunada kashnichning miqdori ko‘proq, 3-namunada esa arpabodiyonning miqdori oshirilgan. 4-namunada esa chilonjiydaning ulushi ko‘paytirilib, har xil nisbatlarning o‘zaro ta‘sirini va ularning antioksidant faollikdagi o‘zgarishlarini o‘rganishga e‘tibor qaratildi.

Mazkur aralashmalarni tayyorlash jarayonida o‘simliklarning an‘anaviy xalq tabobatidagi qo‘llanilishiga asoslanilgan, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlarda berilgan ma‘lumotlarga tayanib, bu o‘simliklarning foydali xususiyatlarini tadqiq qilish maqsad qilingan.

5-jadval asosida tayyorlangan namunalar va vitamin C ning antioksidant faollik foizlari (AOF%) qiyoslandi (6-jadval).

6-jadval.

Vitamin C va o‘rganilgan o‘simliklar namunalarining antioksidant faolligi

Vaqtt	AOF, %				
	Vitamin C	1-namuna	2-namuna	3-namuna	4-namuna
1-minut	14.55%	7.27%	-6.36%	13.64%	-5.45%
3-minut	21.29%	9.24%	-0.80%	14.46%	-0.40%
5-minut	23.99%	7.80%	0.00%	13.58%	0.58%
10-minut	25.33%	6.33%	1.53%	12.88%	2.62%
O‘rtacha	<b>21.29%</b>	<b>7.66%</b>	<b>-1.41%</b>	<b>13.64%</b>	<b>-0.66%</b>

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 3-namunaning antioksidant faollik ko‘rsatkichi vitamin C ga nisbatan pastroq bo‘lsa-da, qolgan namunalar bilan qiyoslaganda eng yuqori antioksidant faollikka ega ekanligi aniqlandi. Shu sababli, ushbu tarkibdagi namunani shifobaxsh oziq-ovqat qo‘shilmasi sifatida tavsiya etish mumkin va uni shartli ravishda “Askarufen” deb nomladik

Tadqiqotimiz davomida Askarun va Askarufen ekstraktlari tarkibidagi suvda eruvchan vitamin tarkibi, fenolli birikmalari tahlil qilindi. Askarun ekstrakti tarkibida suvda eruvchan vitaminlardan B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, B<sub>3</sub>, PP, B<sub>6</sub>, B<sub>9</sub>, B<sub>12</sub> va C vitaminlari miqdori aniqlandi. Faqat B<sub>12</sub> vitamini Askarun tarkibida aniqlanmadi. 100 gramm namunadagi vitaminlarning miqdori quyidagi qatorda ortib boradi: B<sub>6</sub> < PP < B<sub>9</sub> < B<sub>1</sub> < C < B<sub>2</sub> < B<sub>3</sub>. Eng ko‘p miqdorda B<sub>3</sub> vitamini (19,528 mg/100g) va eng kam miqdorda B<sub>6</sub> (0,383 mg/100g) mavjudligi aniqlandi. Askarufen ekstrakti tarkibida suvda eruvchan vitaminlardan B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, B<sub>3</sub>, PP, B<sub>6</sub>, B<sub>9</sub> va C vitaminlari miqdori aniqlandi. Faqat B<sub>12</sub> vitamini Askarun tarkibida aniqlanmadi. 100 gramm namunadagi vitaminlarning miqdori quyidagi qatorda ortib boradi: B<sub>6</sub> < PP < C < B<sub>3</sub> < B<sub>9</sub> < B<sub>2</sub> < B<sub>1</sub>. Eng ko‘p miqdorda B<sub>1</sub> vitamini (33,633 mg/100g) va eng kam miqdorda B<sub>6</sub> (0,705 mg/100g) mavjudligi aniqlandi. Askarun va Askarufen tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlarni tarkibini solishtiradigan bo‘lsak, Askarun tarkibida 46,185 mg/100 g hamda askarufen tarkibida esa 99,477 mg/100 g vitamin aniqlangan. Askarufen tarkibida suvda eruvchan vitaminlar ko‘proq miqdorda ekanligi aniqlandi. Askarun B<sub>2</sub> va B<sub>3</sub> vitaminlariga boy bo‘lsa, askarufen B<sub>1</sub> va B<sub>2</sub> vitaminlariga boydir. Askarun va askarufen B<sub>2</sub> vitaminiga boy ekanligini ko‘rish mumkin.

Askarun va Askarufen ekstraktlari tarkibidagi suvda eruvchan fenolli birikmalar miqdori tahlili natijasida Askarun tarkibida gall kislota, rutin, salitsil kislota, kversetin, apigenin aniqlandi. Askarun tarkibida kempferol aniqlanmadi. Eng ko‘p miqdorda apigenin va eng kam miqdorda gall kislotasi aniqlandi. Askarufen tarkibida gall kislota, rutin, salitsil kislota, kversetin, apigenin aniqlandi. Askarufen tarkibida kempferol aniqlanmadi. Eng ko‘p miqdorda apigenin va eng kam miqdorda salitsil kislotasi aniqlandi. Askarun va Askatufen tarkibidagi fenolli birikmalarning tarkibini solishtiradigan bo‘lsak, Askarun tarkibida 100,019 mg/100

g hamda askarufen tarkibida esa 26,661 mg/100 g vitamin aniqlangan. Askarun tarkibida suvda fenolli birikmalar ko‘proq miqdorda ekanligi aniqlandi. Askarun salitsil kislotasi, kversetin, apigeninga boy bo‘lsa, askarufen apigenin va rutinga boydir. Askarun va Askarufen apigeninga boy ekanligini ko‘rish mumkin.

Tadqiqotimiz davomida arpabodiyon, kashnich va ulardan tayyorlangan biologik faol qo‘shilma mineral tarkibi tahlili amalga oshirildi. Namunalar tarkibidagi asosiy makroelementlar, mikroelementlar va zaharli elementlar tarkibi alohida o‘rganilganda quyidagi natijalar olindi. arpabodiyon va kashnich o‘simliklarining makroelementlar ko‘p miqdorda uchraydi. Jumladan arpabodiyon tarkibida, P-12590 mg/kg, Ca-35370 mg/kg, Mg-10030 mg/kg, Na-4677 mg/kg, K-5960 mg/kg miqdorda. Kashnichda esa P-12590 mg/kg, Ca-19640 mg/kg, Mg-11380 mg/kg, Na- 1609 mg/kg, K-34420 mg/kg miqdorda mavjud.

Arpabodiyon (*Pimpinella anisum L*) va kashnich (*Coriandrum sativum L*) o‘simliklari, ularning ozuqaviy qiymati va terapevtik xususiyatlari tufayli oziq-ovqat qo‘shilmalari sifatida keng qo‘llaniladi. Ular inson salomatligiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadigan tabiiy manbalardir.

Namunalar tarkibidagi asosiy makroelementlar, mikroelementlar va zaharli elementlar tarkibi alohida o‘rganilganda quyidagi natijalar olindi (7-9 jadvallar).

7-jadval.

Arpabodiyon, kashnich va Assurjum biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmasining asosiy makroelementlar miqdori (mg/kg).

Makroelement miqdori (mg/kg)			
Element nomi	Arpabodiyon	Kashnich	Assurjum
P	12590	12590	11210
Ca	35370	19640	20920
Mg	10030	11380	11550
Na	4677	1609	966
K	5960	34420	42060

Jadval ma'lumotlaridan ko‘rish mumkinki, o‘rganilgan arpabodiyon va kashnich o‘simliklarining makroelementlar ko‘p miqdorda uchraydi. Jumladan arpabodiyon tarkibida, P-12590 mg/kg, Ca-35370 mg/kg, Mg-10030 mg/kg, Na-4677 mg/kg, K-5960 mg/kg miqdorda. Kashnichda esa P-12590 mg/kg, Ca-19640 mg/kg, Mg-11380 mg/kg, Na- 1609 mg/kg, K-34420 mg/kg miqdorda mavjud.

Assurjum biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi asosiy mikroelementlar miqdori o‘rganilgan bo‘lib olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

8-jadval.

Assurjum biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmasining asosiy elementlar miqdori.

Element miqdori (mg/kg)							
Element nomi	Arpabodiyon	Kashnich	Assurjum	Element nomi	Arpabodiyon	Kashnich	Assurjum
Fe	622	397	453,25	Te	<0,30	<0,30	<0,30

Cu	20,5	32,2	29,275	Cs	0,022	0,074	0.105
Mn	130	65,9	81,925	Ba	8,88	11,3	14.9
Cr	1,13	1,18	1,1675	La	0,067	0,057	0.696
Zn	59,2	56,5	57,175	Pr	0,022	0,022	0.117
Al	268	180	202	Nd	0,046	0,038	0.346
Pb	0,330	0,531	0,48075	Sm	<0,01	<0,01	0.057
Ni	4,80	3,46	3,795	Eu	<0,01	<0,01	0.010
Mo	<0,10	0,743	<0,58225	Gd	<0,01	<0,01	0.065
Se	1,21	1,26	1,2475	Tb	<0,01	<0,01	<0,01
Co	0,690	0,320	0,4125	Dy	<0,01	<0,01	0.033
Li	7,83	12,1	11,0325	Ho	<0,01	<0,01	0.006
Be	<0,05	<0,06	<0,0575	Er	<0,01	<0,01	0.012
B	0,194	0,138	0,152	Tm	<0,01	<0,01	<0,01
Sc	0,278	0,255	0,26075	Yb	<0,01	<0,01	0.012
Ti	56,2	58,8	58,15	Lu	<0,01	<0,01	<0,01
V	0,372	0,296	0,315	Hf	<0,01	<0,01	<0,01
Ga	0,154	0,190	0,181	Ta	<0,01	<0,01	<0,01
Rb	19,7	28,5	26,3	W	<0,01	<0,01	0.159
Sr	213	227	223,5	Re	<0,01	<0,01	<0,01
Y	0,047	0,037	0,0395	Pt	<0,05	<0,05	<0,05
Zr	0,344	0,213	0,24575	Au	<0,05	<0,06	<0,05
Nb	0,019	<0,005	0,0085	Ti	<0,01	<0,01	<0,01
Ag	0,033	0,228	0,17925	Bi	<0,01	<0,01	<0,01
In	<0,005	<0,005	<0,005	Th	0,297	0,294	0.340
Sn	0,021	0,021	0,021	U	0,042	0,032	0.082
Sb	0,053	0,083	0,0755				

9-jadval.

Arpabodiyon, kashnich va Assurjum biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibida aniqlangan toksik elementlar miqdori (mg/kg)

No	Element	Elementlarning o‘lchov diapazoni	Arpabodiyon	Kashnich	Assurjum
1	As	0.10-4000	0,739	1,13	1.28
2	Cd	0.005-4000	0,034	0,061	0.079
3	Pb	0.1-4000	0,330	0,531	0,968

Ushbu jadvalda biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalari tarkibidagi uchta toksik element (mishyak - As, kadmiy - Cd va qo‘rg‘oshin - Pb) miqdorlari ko‘rsatilgan. Elementlarning o‘lchov diapazoni 0.005 dan 4000 mg/kg gacha belgilangan. Arpabodiyon, kashnich va ularning birikmasi bo‘lgan Assurjum tarkibidagi toksik elementlarning miqdorini ko‘rsatadi. Arpabodiyon va Kashnich qo‘shilmasi bo‘lgan Assurjumda mishyak, kadmiy va qo‘rg‘oshin miqdori individual o‘simliklardan yuqori. Ushbu miqdorlar ruxsat etilgan darajalar doirasida bo‘lsa-da, elementlarning yuqori miqdori uzoq muddatli iste‘mol qilish xavfsizligini ta‘minlash uchun doimiy tekshiruv va nazoratni talab etadi.

Farg‘ona viloyati hududida o‘stirilayotgan arpabodiyon, kashnich va ulardan tayyorlangan biologik qo‘shilmadan olingan kimyoviy tahlil natijalariga ko‘ra o‘simlik tarkibida biogen elementlar Ca, K, Mg, P, Na va Fe miqdori ko‘pligini

inobatga olib, ushbu o‘simlik (qo‘shimchalari) asosida inson organizmida makro va mikroelementlar yetishmasligi natijasida kelib chiqadigan ko‘plab kasalliklarni oldini olishda va davolashda yordam beruvchi fitopreparat-damlamalar va oziq-ovqat qo‘shimchalarini ishlab chiqarish va amaliyotga tadbiiq etish tavsiya etiladi.

Askarun va Askarufen tarkibidagi makro- va mikroelementlarning miqdorini aniqlash jarayonida, ular inson salomatligi uchun foydali ko‘plab elementlarni o‘z ichiga olishi aniqlandi.

10-jadval

Askarun va askarufen oziq-ovqat qo‘shilmasining mineral tarkibi

№	Element	Miqdor ± standart chetlanish SD, mg		Nisbiy standart chetlanish RSD, %		Toksik chegara, mg/sutka yoki ruxsat etilgan maksimal konsentratsiya**, mg/kg
		Askarun	Askarufen	Askarun	Askarufen	
1.	<i>Ag</i>	0,013 ± 0,003	0,014 ± 0,005	22.8	38.4	
2.	<i>Al</i>	3,580 ± 0,053	1,441 ± 0,015	1.48	1.0	2
3.	<i>Au</i>	0,023 ± 0,004	0,062 ± 0,005	15.9	8.6	
4.	<i>Ba</i>	0,171 ± 0,001	0,513 ± 0,006	0.6	1.1	
5.	<i>Be</i>	0,012 ± 0,000	0,012 ± 0,001	1.3	1.1	
6.	<i>Bi</i>	0,077 ± 0,022	0,074 ± 0,023	29.2	30.6	
7.	<i>Ca</i> *	22,885 ± 0,111	17,959 ± 0,191	0.5	1.1	
8.	<i>Cd</i>	0,011 ± 0,001	0,012 ± 0,001	8.0	6.3	0,03**
9.	<i>Ce</i>	1,626 ± 0,009	1,617 ± 0,012	0.5	0.8	0,5**
10.	<i>Cr</i>	0,248 ± 0,004	0,244 ± 0,004	1.5	1.6	5
11.	<i>Cs</i>	5,204 ± 0,155	5,129 ± 0,068	3.0	1.3	
12.	<i>Cu</i>	0,387 ± 0,002	0,632 ± 0,009	0.6	1.4	5**
13.	<i>Eu</i>	0,013 ± 0,001	0,014 ± 0,001	7.8	6.2	
14.	<i>Fe</i>	3,510 ± 0,051	9,738 ± 0,055	1.5	0.6	15**
15.	<i>Ge</i>	0,027 ± 0,011	0,026 ± 0,009	39.9	34.2	
16.	<i>Ho</i>	0,024 ± 0,002	0,024 ± 0,002	7.7	6.9	
17.	<i>Ir</i>	0,057 ± 0,002	0,051 ± 0,007	3.5	14.3	
18.	<i>K</i>	868,877 ± 9,775	753,991 ± 6,680	1.1	0.9	
19.	<i>La</i>	0,030 ± 0,003	0,023 ± 0,004	8.6	16.3	
20.	<i>Li</i>	0,336 ± 0,004	0,124 ± 0,002	1.2	1.8	200
21.	<i>Lu</i>	0,025 ± 0,000	0,024 ± 0,001	1.4	1.3	
22.	<i>Mg</i>	48,232 ± 0,304	159,417 ± 1,309	0.6	0.8	
23.	<i>Mn</i>	0,328 ± 0,002	6,030 ± 0,088	0.7	1.5	40
24.	<i>Mo</i>	0,018 ± 0,003	0,086 ± 0,003	19.6	3.5	
25.	<i>Na</i> *	18,281 ± 0,171	17,624 ± 0,313	0.9	1.8	

26.	<i>Nb</i>	0,017 ± 0,004	0,015 ± 0,003	23.5	20.8	
27.	<i>Nd</i>	0,238 ± 0,040	0,268 ± 0,042	17.0	15.8	
28.	<i>Ni</i>	0,145 ± 0,003	0,243 ± 0,006	2.3	2.3	20
29.	<i>P*</i>	367,547 ± 3,604	2771,168 ± 17,640	1.0	0.6	
30.	<i>Pb</i>	0,017 ± 0,004	0,011 ± 0,007	23.9	63.8	
31.	<i>Rb</i>	1,956 ± 0,085	1,877 ± 0,136	4.4	7.2	0,3**
32.	<i>Re</i>	0,067 ± 0,019	0,024 ± 0,003	29.2	11.1	
33.	<i>Ru</i>	0,022 ± 0,000	0,022 ± 0,001	1.9	1.4	
34.	<i>Sc</i>	2,242 ± 0,019	1,511 ± 0,009	0.8	0.6	
35.	<i>Si</i>	2,170 ± 0,012	0,553 ± 0,005	0.5	0.9	500
36.	<i>Sr</i>	1,126 ± 0,030	0,913 ± 0,010	2.7	1.1	
37.	<i>Te</i>	0,497 ± 0,052	0,429 ± 0,059	10.5	13.8	
38.	<i>Th</i>	0,111 ± 0,021	0,134 ± 0,008	18.7	6.1	
39.	<i>Ti</i>	0,112 ± 0,003	0,081 ± 0,001	2.9	1.7	
40.	<i>V</i>	0,049 ± 0,002	0,170 ± 0,002	4.4	0.9	
41.	<i>Y</i>	0,032 ± 0,001	0,032 ± 0,000	1.6	0.8	
42.	<i>Yb</i>	0,027 ± 0,000	0,026 ± 0,001	1.2	2.4	
43.	<i>Zn</i>	0,883 ± 0,005	5,412 ± 0,057	0.6	1.1	600
44.	<i>Zr</i>	0,013 ± 0,002	0,010 ± 0,001	12.4	9.7	

ICP-OES usuli yordamida amalga oshirilgan tahlillar natijasida 44 ta elementning aniqlangan miqdorlari tahlil qilindi. Ushbu qo‘shimchalar tarkibida kaliy (K), fosfor (P), magniy (Mg), natriy (Na) va kaltsiy (Ca) kabi muhim makroelementlar topildi, ular organizmning normal ishlashi uchun katta ahamiyatga ega. Masalan, kaliy hujayradan tashqari suyuqlik hajmini saqlab turish, hujayra membranalari qo‘zg‘aluvchanligini boshqarish kabi funktsiyalarni bajaradi. Fosfor esa organizmning suyak va tish shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu element Askarufen tarkibida Askarundagiga nisbatan 7,5 marta ko‘proq miqdorda mavjudligi aniqlandi

Tayyorlangan biologik qo‘shimchada flavonoidlarni yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usulida sifat jihatdan aniqlashda digidrokversitin, lyuteonin, rutin, senerozid, salidrozd, salidrozdilarni standart namunalarning ushlanish vaqtini solishtirish orqali aniqlandi (11-jadval).

11-jadval.

Biologik qo‘shimchada aniqlangan flavonoidlarning miqdori

Flavonoidlar	Aralashma (1-3)
	Konsentratsiya, mg/gr
Digidrokversitin	9,85
Lyuteonin	24,01
Rutin	29,12
Senerozid	41,92
Salidrozd	6,95
jami	111,85

Jadvaldan ko‘rinadiki, 1 qism arpabodiyon va 3 qism kashnichdan iborat biologik qo‘shimchada rutin, lyuteolin, kversetin, senerozidning miqdori nisbatan ko‘proq bo‘lib, bu flavonoidlar farmakologik jihatdan faol hisoblanadi. Umumiy flavonoidlar miqdori 111,85 mg/gr ni tashkil etgan. Bu tayyorlangan biologik qo‘shimchani flavonoidlarga boy ekanligini ko‘rsatdi.

